kitobiy, qisman so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. *To hit Jackpot* tarkibidagi *Jack* antroponimik komponenti esa lotereya o‘yinlari bilan bog‘liq bo‘lib, frazeologizm so‘zlashuv uslubiga xosligi va hissiy bo‘yoqdorlikni oshirishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur birliklarning real kontekstdagi qo‘llanishi quyidagi misollarda kuzatiladi: *“Some, like the American Civil Liberties Union, say the mogul’s influence may be benign or even positive. But others interviewed suggested the combination of Musk’s libertarian “frat boy” ethics and his Midas Touch for making money could make the divisive social media business model even more toxic”* [8].

Bu kontekstda *Midas Touch* insonning pul topishdagi omad va qobiliyatini obrazli ifodalash uchun qo‘llangan. Birlikning kontekstda *making money* birikmasi bilan birga kelishi uning mazmunini konkretlashtirib, omad va muvaffaqiyat bilan bog‘laydi.

To hit Jackpot AOKFining qo‘llanishi esa quyidagi kontekstda kuzatiladi: *“I wanted a small house with a fireplace, and I really hit the Jackpot with this one”* [6].

Mazkur kontekstda *hit the Jackpot* so‘zlashuv uslubida qo‘llanib, so‘zlovchining istagiga mos kelgan holatdan mamnunligini va omadli natijaga erishganligini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilmoqda. Demak, mazkur AOKFning psixologik mazmuni kontekst orqali konkretlashib, so‘zlovchining ijobiy ruhiy holatini ta’sirchan ifodalaydi. Umuman, frazeonimlar muayyan ruhiy holatni ifodalash bilan birga, emotsionallik, ekspressivlik va baholash orqali uning mazmuniy ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Tahlil natijasida frazeonimlarning psixologik mazmuni ularning emotsional-ekspressiv, baholovchi va uslubiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Ularning ma’no va uslubiy xususiyatlarini belgilashda semantik, kontekstual, komponent va etimologik mezonlardan foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek, frazeonimlarning kontekstual qo‘llanishi insonning ruhiy holatini yanada obrazli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, frazeonimlarning inson psixologik xususiyatlarini ifodalashdagi imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritish uchun ularni kognitiv va pragmatik aspektlarda tadqiq etish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, frazeonimlar asosida insonning ruhiy holati va xarakter xususiyatlarining konseptuallashuvi, ularning muayyan kognitiv modellar bilan bog‘liqligi hamda nutqiy vaziyatda kommunikativ va pragmatik maqsadlarni amalga oshirishdagi o‘rni alohida tadqiq etilishi mumkin. Bunday yondashuv frazeonimlarning nafaqat nominativ va ekspressiv, balki kognitiv hamda kommunikativ imkoniyatlarini ochib berish, ularning til va tafakkur, shuningdek, til va nutq o‘rtasidagi munosabatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Shu sababli ingliz tilidagi frazeonimlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektda o‘rganish zamonaviy frazeologik tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishi sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aleksaitė A. The Stylistic Resources of Occasional Phraseological Units in Rimvydas Valatka’s Comments on Russia’s War in Ukraine // Verbum. 2024, vol. 15, p. 1–11. DOI: 10.15388/Verb.15.10.

(2). Chitova L.A. Proper Name Idioms and Their Origins. Anthology. 2013, 192 p.

(3). Dekatova K.I. The contextual interaction of phraseological units and stylistic devices as a complex stylistic phenomenon // Terra Linguistica. 2024. vol. 15, № 3, p. 47–59. DOI: 10.18721/JHSS.15305.

(4). John M. Paradise Lost. The Morgan Library & Museum. Archived from the original on 21 July 2011. Book Two, p 49. Retrieved 5 Feb 2024.

(5). Nasrullaeva N.Z. The Semantic Meaning of Phraseological Units and their Prototypes // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. 2023, vol. 2, № 11, p. 131–134. DOI: 10.51699/ijllal.v2i11.2992.

(6). Richard A.S. Dictionary of American Idioms. The McGraw-Hill Companies, Inc. 2005, 1098 p.

(7). Ратушная Е.Р. Антропономинирующая парадигма русской фразеологии: семантика, формирование, функционирование. Автореф. дис… докт. филол. наук, Курган, 2001, 52 с.

(8). https://PittisDonCBC News. Apr 28, 2022

Karimov Furqatjon Qahramon o‘g‘li (Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi tayanch doktoranti; e-mail: furqatkarim6@gmail.com)

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MISTIKANING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida kam uchraydigan, rivojlanish bosqichidagi mistika yo‘nalishining paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari, o‘ziga xos jihatlari ilmiy tadqiq qilingan. Mistika yo‘nalishidagi asarlar istiqlol davrida yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Aslida, bunday yo‘nalishga xos elementlar ancha oldinga xalq og‘zaki ijodi davrida ertak, doston, mif, afsonalarda ham uchraydi. Keyin-*

chalik, tasavvuf adabiyoti hamda jadid adabiyotida mistikaga xos bo'lgan unsurlar uchrashini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: *mistika, mistik element, xalq og'zaki ijodi, ertak, mif, afsona, doston, tasavvuf, hikoya, qissa.*

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ МИСТИЦИЗМА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В данной статье научно исследованы возникновение, этапы развития и специфические особенности мистического направления, являющегося редким и находящимся на стадии развития в узбекской литературе. Произведения в жанре мистики вступили в новый этап развития в период независимости. На самом деле элементы, характерные для этого направления, встречались задолго до этого – в фольклоре: сказках, эпосах, мифах и легендах. В дальнейшем элементы мистики можно наблюдать в суфийской и джадидской литературе.*

Ключевые слова: *мистика, мистический элемент, устное народное творчество, сказка, миф, легенда, эпос, суфизм, рассказ, повесть.*

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MYSTICISM IN UZBEK LITERATURE

Annotation. *This article provides a scientific investigation into the emergence, stages of development, and distinctive features of the mystical trend in Uzbek literature, which is relatively rare and currently evolving. Works of the mystical direction entered a new stage of development during the independence period. In fact, elements characteristic of this trend appeared much earlier in oral folklore– in fairy tales, epics, myths, and legends. Subsequently, mystical elements can also be observed in Sufi and Jadid literature.*

Keywords: *mysticism, mystical element, oral folklore, fairy tale, myth, legend, epic, Sufism, short story, novella.*

Kirish. "So'z kimyosi" kitobining muallifi Yan Parandovskiy so'z haqida fikr yuritar ekan shunday deydi: "Har qanday boshqa san'at turini olib ko'radigan bo'lsak, unda mavzular cheklangan, faqat yolg'iz adabiyotgina bu sohada chek-chegara bilmaydi. U xuddi so'z kabi olis olislarni qamrab oladi, so'z esa fikr singari, shu qadar uzoq masofalarga yetib boradiki, na zamon, na makonda sarhad bilmaydi" [1;242-b.] O'zbek adabiyoti o'zining qadimiy va boy tarixiga ega. Jahon adabiyotining bir qismi hisoblangan bu adabiyot istiqlol davrida yangi bir bosqichga ko'tarildi. Mustaqillik bergan imkoniyat adabiyotda ham sezildi. Senzuradan qutulgan ijodkorlar bir xil qolipdagi asarlar yaratishdan voz kechishdi. Adabiyot tom ma'noda ko'ngil ishiga aylandi. Adiblar dunyoga kengroq qaray boshlashdi. Davrning eng katta hodisa, voqealarini yoritishdan ko'ra kichik odamlarning, ya'ni, oramizdagi odamlarning kichik tashvishlari orqali ularning keng qalbini yoritishni muhim deb hisoblashdi. Bu davrda o'zbek adiblari jahon adabiyotining eng yaxshi asarlarini o'rganishdi va jahon adabiyotiga teng milliy qahramonlarni yaratishdi. Omon Muxtor, Nazar Eshonqul, Erkin Usmonov, Ulug'bek Hamdam o'z asarlarida yangidan yangi shakllar, usullar orqali sof milliy obrazlar yaratishdi. Bu davrda nafaqat she'riyat, balki nasr ham jadal rivojlandi. Mistika ham aynan istiqlol davrida rivojlanish bosqichiga o'tdi. Bir qancha ijodkorlar orasida Erkin Usmonovni alohida ta'kidlash lozim. "Mistika" yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "sirli, yashirin" degan ma'noni anglatadi. Mistika istiqlol davrida taraqqiyot bosqichiga kirdi. Mistika o'zbek adabiyotida qachon paydo bo'lgan?

Mistik asarlarning yoki mistikaga xos elementlar o'zbek adabiyotida paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqsak. Mistik asarlarga xos elementlar, dastlab, o'zbek adabiyotida xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ertak va dostonlardagi devlar, parilar, kelajakdan xabar beruvchi tushlar, g'aroyib hodisalar, eng avvalo, yuqorida tilga olgan xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydi. Mistik elementlar o'sha davr insonlarining dunyoqarashi, tabiat hodisalarini tushunishi hamda diniy qarashlarining badiiy ifodasi sifatida yuzaga kelgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida sof mistik janrda asarlar yaratilmagan bo'lsa-da, mistika va sehr elementlari ertaklar, dostonlar, afsona-yu rivoyatlarda katta o'ringa ega. Mistik elementlar ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan sirli, sehrli obrazlar va voqealar orqali insonning ichki kechinmalari kashf qilishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalq og'zaki ijodida uchraydigan mistik elementlarni bir qancha guruhlarga bo'lish mumkin:

a) yalmog'iz va alvastilar: salbiy xarakterga ega bo'lgan bunday obrazlar, asosan, yovuzlik, baxtsizlik olib keluvchilar sifatida talqin qilinadi. Ular insonlardan olisda, qorong'u va bexosiyat joylarni makon qilib, doim insonlarga kulfat kelturuvchi obrazlar sifatida talqin qilinadi. "Yalmog'iz kampir dadil o'rnidan turib bola orqasidan quvib ketibdi. Bola toyini choptirib qocha beribdi. Yalmog'iz kampir quva beribdi" [3;42-b.];

b) devlar, ajdarholar: bunday obrazlar kuch-qudrat timsoli sifatida talqin qilinadi. Ular ba'zan salbiy, ba'zan ijobiy obraz sifatida uchraydi. Chunki oddiy inson qo'lidan kelmaydigan vazifalar hamda ulardagi kuch-qudrat mistik element sifatida ifodalasak bo'ladi;

d) qushlar: Semurg' hamda Humo qushlari ijobiy xarakterga ega obrazlar bo'lib, yuqorilardan farqli ravishda ular insonlarga baxt, omad va yaxshiliklar olib keladi, insonlarni turli qiyinchiliklardan olib chiqishadi;

e) sirli buyumlar: ochildasturxon, ur to'qmoq, sehrli uzuk, uchar gilam va boshqa sehrli buyumlar ham qahramonning mushkulini yengillatishga, bir manzildan boshqa manzilga oson ko'chishga imkon beradi;

f) sehrli so'z va jumlalar: xalq hayoti, turmush tarziga singib ketgan duolar hamda g'orlarni ochishga yordam beruvchi turli so'zlarni ham mistik element sifatida qarash mumkin;

g) pari va chiltonlar: doston va ertaklarda uchrovchi parilar, qirq chilton obrazlari ham ijobiy xarakterdagi mistik elementlar bo'lib, ular qahramonlarni bir-biri bilan uchrashishga yoki oshiq bo'lishiga yordam berishadi;

h) tush va bashoratlar: kelajakdan xabar beruvchi tushlar, bashoratlar ham mistik elementning bir turi hisoblanadi. Bular ham insonning og'irini yengil qilishga, qiyin vaziyatlarda to'g'ri yechimni topishga, boshiga tushgan mushkul tashvishlardan oson chiqiqb ketishga yo'l ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o'zbek adabiyotida mistika janrining paydo bo'lishi hamda rivojlaishi, bugungi taraqqiyotini tahlil qilishda qiyosiy-adabiy, tarixiy-tipologik hamda struktural yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, yetuk adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlari tizimli tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan mistik elementlar keyingi davrda yozma adabiyot namunalarida ham uchraydi. Xususan, mumtoz davrimizda yaratilgan ko'plab asarlarda, ya'ni, doston va g'azallarda mistik elementlar mistika atamasi bilan emas, balki tasavvuf istilohi bilan mashhur bo'lgan. Ahmad Yugnakiy asarlarida, Ahmad Yassaviy hikmatlarida, Alisher Navoiyni g'azallari hamda "Lison ut-tayr" dostonida, Mashrab g'azallarida inson o'zligini tanishi, Haqni tanishi, o'zining ruhini tiriklik chegarasidan o'tib, o'zga olamlar bilan birlashishi va boshqa hodisalar ifodlanadi. "Shuning uchun tasavvufda turli sohalar, qarashlar tutashib, to'qnash kelgani, uyg'unligi va ichki ziddiyatini ko'ramiz. Bunda keng fikriy maydonda aql va hikmat salobati ham, his-hayajonga g'arq qaynoq ijodiy parvoz ham, rasm-rusum, belgilab qo'yilgan axloqiy qonun-qoidalar bilan birga, ayni shu qoida-qonunlarni pisand qilmaydigan erkinlik tuyg'usi izhori ham, yashirin sir-u asror barobarida ochiq mantiqiy-falsafiy musohadakorlik ham bor. Shu bois ba'zi ovrupalik olimlarning tasavvufni «mistika» deb atashi bir yoqlama munosabat oqibatidir. Mistika – g'ayb ilmiga ishonch, sirlilik demakdir. Ko'rganimizdek, tasavvufda bu narsa bor, ammo bu ta'limot faqat shundan iborat emas" [4,5] Demak, mistika atamasi to'la to'kis tasavvuf adabiyotini ifodalamaydi. Tasavvuf juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, mistika uning bir kichik bo'lagi sifatida talqin qilish mumkin. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida qushlar galasi Semurg' qushini izlab, turli qiyinchiliklarga duch kelishi, bir necha vodiylardan o'tib, turli mashaqqatlarga duch kelishi va so'nggida o'zlari izlagan qush aslida o'zlari ekanligini anglab yetishi tasvirlab berilgan. "Bu o'ttizta qushning shunch ko'p mashaqqat va ranj chekib, bu yerga yetib kelganlaridan maqsad ularga Semurg' o'z yuzini ko'rsatib, bu fanolardan ana shunday baqoga erishmoq edi. Ammo ular qayoqqa qarasalar, o'zlarini ko'rdilar" [5;196-b.]

Jadid adabiyotida ham mistik elementlarning uchrashini kuzatish mumkin, Xususan, Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi" hikoyasining izohida mavhum hikoya deb izoh berilishi, hikoyaning real hayotga uchramaydigan mistik elementning borligidan dalolat beradi. "Otam bu hikoyani boshlagan vaqtda mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: "Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma", deb tangriga yolborib qo'yar edim" [6,3]

Sho'ro davri adabiyotida mistik yo'nalishdagi asarlarni deyarli uchratmaymiz. Davr siyosati va tasavvuf bilan bog'ligi tufayli turli qarshiliklarga uchrashi oqibatida mistik yo'nalishdagi asarlar deyarli yozilmadi.

Istiqlol davrida barcha sohalarda bo'lgani kabi adabiyot ham o'zining yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Jahon adabiyotining sara namunalarini o'rgangan yozuvchilar turli xil izlanishlar qilishdi. Avvallariga o'xshamagan, jahon adabiyoti bilan tenglasha oladigan asarlar yaratildi. Jahonning eng yaxshi namunalarini o'rgangan, ijod erkinligi berilgan adiblar bir-biridan farq qiladigan xarakterga, taqdirga ega yangi milliy obrazlar yaratishdi. Bu davrda ayniqsa, mistika yo'nalishi rivojlanishning yangi bosqichiga kirdi. Erkin Usmonov "Ajal xiyoboni" va "Marhum kech soat sakkizda keladi" nomli kitoblarida mistik yo'nalishdagi qissa va hikoyalarini e'lon qildi. Nazar Eshonqul "Tun panjaralari", "Qora kitob" qissalari, Ahmad

A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyalari, Omon Muxtorning "Tepalikdagi xaroba", "Ko'zgu oldidagi odam" romanlarida mistik elementlar orqali bugungi kun insonlarining ichki kechinmalari, ularning borliq haqidagi, ruh haqidagi o'y-fikrlari teran ochib berilgan. "San'at asarining badiiy mukammalligi, umrboqiyligi, mantunkorligi talay adabiy-estetik omillarga bog'liq. O'quvchi ko'ngliga zavq beradigan, inson olami, voqlelik ko'lami, his-tuyg'ular juda tiniq tasvirlangan, ayni chog'da, umuminsoniy muammolarni betakror uslubda, o'ziga xos san'at tilida obrazli talqin etgan badiiy asar qanday janr yoki ijodiy metodda yozilishidan qat'i nazar, eng sara sanaladi" [2;36-b.].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, istiqlol davri adabiyotida mistika yo'nalishi o'ziga xos tarzda taraqqiy etib bormoqda. Bu davr ijodkorlari hayotiy voqealarni mistik qarashlar, elementlar, g'ayritabiiy hodisalarni, qadimgi o'zbek mifologiyasi hamda tasavvufiy tushunchalarni qorishiq holatda tasvirlay boshladi. Jahon adabiyoti, xususan, G'arb adabiyotida mistika ko'proq dahshat va qo'rquvga asoslangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida esa ko'proq sirli hodisalar, g'ayritabiiy voqealar orqali insonni kashf etish, ko'ngil olamining eng yashirin nuqtalarigacha borish, hayot mazmuni, tiriklikni teran anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Yan Parandoskiy. So'z kimyosi: badia-esse. Tarjimonlar: O.Sharafiddinov, M.Akbarov. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2022, 464-bet.

(2). Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. Toshkent, G'afur G'ulom nomdagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016, 364-bet.

(3). O'zbek xalq ertaklari. "Dono qiz". Ertaklar to'plami. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi Ergashboy Matyoqubov T. "Ilm-ziyo-zakovat", 2023, 42-bet.

(4). Najmiddin Komilov. "Tasavvuf". T., "Movarounnahr"–"O'zbekiston", 2009, 448-bet.

(5). Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr" [matn]. Doston. Toshkent, "Tafakkur", 2020, 224-bet.

(6). Abdulla Qodiriy. "Jinlar bazmi": Hikoyalar. T., "Cho'lpon", 2004, 24-bet.

Palimbetova Malika Janabaevna (Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD;
malikapalimbetova91@gmail.com)

1970–1980-YILLARDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY MUHITNING QORAQALPOQ DRAMATURGIYASINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 1970–1980-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitning qoraqalpoq dramaturgiyasining rivojlanishiga ta'siri ilmiy tahlil qilingan. Davrning mafkuraviy qarorlari, teatr festivallari va T.Qayipberganov ma'ruzalaridagi daliliy fikrlar asosida dramaturgiyadagi janriy va badiiy o'zgarishlar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *qoraqalpoq dramaturgiyasi, 1970–1980-yillar, ijtimoiy realizm, Orol muammosi, T. Qayipberganov, teatr san'ati.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ 1970-1980-ых ГОДОВ XX ВЕКА НА РАЗВИТИЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Аннотация. *В статье научно анализируется влияние социально-политической и культурной среды 1970–1980-х годов XX века на развитие каракалпакской драматургии. На основе идеологических постановлений того периода, театральных фестивалей и докладов Т.Каипбергенова раскрываются жанровые и художественные изменения в драматургии.*

Ключевые слова: *Каракалпакская драматургия, 1970–1980-е годы, социалистический реализм, проблема Арала, Т.Каипбергенов, театральное искусство.*

THE INFLUENCE OF THE SOCIO-POLITICAL AND CULTURAL ENVIRONMENT OF THE 1970S–1980S ON THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK DRAMATURGY

Annotation. *The article scientifically analyzes the impact of the socio-political and cultural environment of the 1970s–1980s on the development of Karakalpak dramaturgy. Based on the ideological resolutions of the period, theatrical festivals, and report points by T. Kaipbergenov, the genre and artistic transformations in dramaturgy are revealed.*

Keywords: *Karakalpak dramaturgy, 1970–1980s, social realism, Aral Sea problem, T. Kaipbergenov, theatrical art.*

Kirish (Introduction). XX asrning 1970–1980-yillari qoraqalpoq milliy dramaturgiyasi va teatr san'ati tarixida tub burilish, ijtimoiy-psixologik realizm tamoyillarining chuqurlashuvi va professional kadrlar safining shakllanish davri sifatida alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Bu davrda milliy adabiy jarayon sotsialistik realizm metodining qat'iy va biryoqlama qoliplaridan bosqichma-bosqich chiqib, inson-